

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2-qism

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE
FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И
ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

URGANCH-2025

TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. ****Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida****. – Toshkent, 2021.

SUV RESURLARINI INTEGRALLASHGAN HOLDA BOSHQARISH (SRIB)

Qurbanov Saparboy Matyaqubovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti

“Qurilish” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish (SRIB) konsepsiyasining mohiyati, ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. SRIB suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish hamda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida qaraladi. Tadqiqotda SRIBning asosiy tamoyillari – barqarorlik, adolatli taqsimot, manfaatdor tomonlar ishtiroki va fan-texnika yutuqlarini tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu yondashuv orqali suv tanqisligi muammolarini hal qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash hamda iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish yo‘llari yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается сущность, значение и практическое применение концепции интегрированного управления водными ресурсами (ИУВР). ИУВР определяется как комплексный подход, направленный на рациональное использование водных ресурсов, их охрану, а также согласование экономических, экологических и социальных интересов. В исследовании анализируются основные принципы ИУВР – устойчивость, справедливое распределение, участие заинтересованных сторон и внедрение научно-технических достижений. Особое внимание уделяется вопросам решения проблемы дефицита воды, обеспечения экологической безопасности и повышения эффективности управления водными ресурсами в условиях изменения климата.

Abstract

This article explores the essence, significance, and practical application of Integrated Water Resources Management (IWRM). IWRM is defined as a comprehensive approach aimed at the rational use of water resources, their protection, and the harmonization of economic, environmental, and social interests.

Suv tanqisligi - mavjud institutsional tuzilmalar sharoitida barcha foydalanuvchilar tomonidan suvning miqdori yoki uning sifatiga birgalikdagi ko'rsatiladigan ta'sirlari tufayli endi barcha tarmoqlarning, shu jumladan atrof-muhitning talablarini to'liq qondirish imkoniyati qolmaydigan nuqta sifatida tavsiflanadi. Suv tanqisligi nisbiy tushuncha bo'lib, talab yoki taklifning har qanday darajasida yuzaga kelishi mumkin. Dunyoning 43 mamlakatida **700 million kishi** suv tanqisligidan aziyat chekmoqda

2025 yilga kelib, **1.8 mlrd** kishining absolyut suv tanqisligi sharoitidagi mamlakatlar yoki mintaqalarda, vashamoqda, mintaqa aholisining uchdan ikki qismi (**6 mlrd**) **suv stressi** sharoitida yashashlari mumkin.

2030 yilga kelib – mavjud iqlim o'zgarishi stsenariyalariga ko'ra planeta aholisining **deyarli yarmi yuqori suv stressi** sharoitida yashashlari mumkin.

Metodologiya

Suv stresi (inkirozi) ni keltirib chikaruvchi omillarni kuyidagicha izoxlash mumkin:

- Aholi sonining ortishi.
- Sanoatlashtirish va urbanizatsiyaning ortishi.
- Suv resurslarining ifloslanishi ularning miqdoriga ta'sir etmoqda va natijada mavjud suvlar miqdori kamaymoqda.
- Toza ichimlik suvi va eng zaruriy sanitariya xizmatidan foydalanish imkoniyati aholining katta qismida mavjud emas.
- Tabiiy ofatlarning (qurg'oqchilik, toshqinlar, suv bosishi) 90% suv bilan bog'liq.
- Iqlim o'zgarishi suv muammolarini murakkablashtirmoqda.
- Xalqaro mojarolar o'sib borayotgan suv stressitufayli kattalashuvi mumkin.

Muhokama va natijalar

Suv resurslarini integral boshqarish – suv inqirozini hal qilish yondashuvi bo'la oladimi

Bugungi kunda suv inqirozi (krizisi) mavjud. Ammo bu inqiroz ehtiyojlarni qondirish uchun mavjud suvlarning juda kam ekanligi bilangina bog'liq emas. Bu ko'proq milliardlab odamlar va atrof-muhit juda ko'p aziyat chekayotgan muammo - suv resurslarini boshqarishning takomillashmaganligi bilan bog'liq.

Suv resurslarini yaxshiroq boshqarish uchun Suv resurslarini integral boshqarish yondashuvi taklif qilindi. Suv resurslarini integral boshqarish barqaror taraqqiyot tamoyillariga asoslanadi

Suv resurslarini integral boshqarish "hayotiy ekotizimlar va atrof-muhitning barqarorligini buzmaganda, iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni adolatli asosda maksimal darajada oshirish maqsadida suv, yer va tegishli resurslarni muvofiqlashtirilgan rivojlantirish va boshqarishga yordam beradigan jarayon" deb ta'riflanadi

Suv resurslarini yaxshiroq boshqarish uchun Suv resurslarini integral boshqarishni quyidagicha tarmoqlararo integratsiyalash mumkin

- Muhitni shakllantirish
- Institutsional rollar
- Boshqaruv instrumentlari
- Suv inson uchun
- Suv oziq- ovqat uchun
- Suv tabiat uchun
- Suv sanoat va boshqa iste'mol chilar uchun

Suv resurslarini integral boshqarishni turli darajalardagi elementlari asosan quyidagilardan iborat:

Milliy daraja

- Milliy suv strategiyalari va qonunlari
- Investitsiya rejalarini uyg'unlashtirish
- Suv sektorini, jumladan qonunchiligini isloh qilish

Havzaviy daraja

- Havzaviy tashkilotlarni qo'llab quvvatlash
- Ma'lumot va axborotlar boshqaruvi, qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi tizimlar

-SRB rejalarini ishlab chiqish, SRIB bo'yicha ko'p tomonlama kelishuvlar

Mahalliy daraja

-Ishtirokga asoslangan boshqaruv tuzilmalari: SIUlar

-Oqova suvlarni tozalash va qayta foydalanish

-Suvlarni saqlash, toshqin va yog'in suvlarini boshqarish

-Suv samaradorligi, energiya samaradorligi

Suv resurslarini integral boshqarishni tamoyillari

1. Chuchuk suv hayot, rivojlanish va atrof-muhitni ta'minlash uchun zarur bo'lgan cheklangan va zaif manbadir.

Chuchuk suv cheklangan resurs, ya'ni gidrologik aylanish jarayonida ma'lum vaqt davomida o'rtacha ma'lum miqdorda suv hosil bo'ladi. Bu suv miqdorini inson harakatlari bilan sezilarli darajada o'zgartirib bo'lmaydi.

Suv antropogen ifloslanish tufayli kamayishi mumkin va ko'pincha kamayadi.

Chuchuk suv inson hayoti, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun zarur bo'lgan tabiiy manbadir.

Bu tamoyil suvning turli maqsadlar, funktsiyalar va xizmatlar uchun zarurligini tan oladi.

Shuning uchun boshqaruv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish bilan bog'laydigan yaxlit (integratsiyalashgan) bo'lishi kerak.

2. Suv resurslarini boshqarish barcha darajadagi foydalanuvchilar, rejalashtiruvchilar va siyosatchilarni jalb etgan holda hamkorlikdagi yondashuvga asoslanishi kerak

Hamkorlikdagi yondashuv siyosatchilar va keng jamoatchilik orasida suvning ahamiyati haqida xabardorlikni oshiradi. Bu shuni anglatadiki, qarorlar eng quyi darajada, suv resurslariga oid loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishda foydalanuvchilarning ishtiroki va to'liq jamoatchilik maslahati bilan qabul qilinadi.

Suv tabiiy resurs bo'lib, undan hamma manfaatdor. Haqiqiy ishtirok faqat **manfaatdor tomonlar** muhokama qilish va qaror qabul qilish jarayonida, hamda,

qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etgan taqdirdagina amalga oshadi.

3. Suv resurslarini bilan ta'minlash, ularni boshqarish va muhofaza qilishda ayollar markaziy rol o'ynaydi.

Suv ta'minotchisi va foydalanuvchisi sifatida ayollarning asosiy roli suv resurslarini rivojlantirish va boshqarish tadbirlarda kamdan-kam hollarda aks etadi. Ushbu tamoyilni qabul qilish va amalga oshirish ayollarning alohida ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Ayollarning suv sohasiga oid dasturlarning barcha darajalarda, shu jumladan qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishda o'zlariga xos tarzda ishtirok etishlarini ta'minlaydigan siyosatni talab qiladi.

SRIB gender xabardorligini talab qiladi. Qarorlarni qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlashda **turli jamiyatlar** erkaklar va ayollarga qanday qilib ma'lum ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rollarni belgilashini hisobga olishi kerak.

4. Suv barcha raqobatdosh foydalanishda iqtisodiy ahamiyatga ega va u iqtisodiy va ijtimoiy ne'mat sifatida tan olinishi kerak.

Ushbu tamoyil doirasida, avvalambor, barcha odamlarning toza suv va kanalizatsiyadan arzon narxlarda foydalanishga bo'lgan asosiy huquqini tan olish juda muhimdir. O'tmishda suvning iqtisodiy qiymatini e'tirof etmaslik suv resurslaridan xo'jasizlarcha va ekologik jihatdan zararli foydalanishga olib keldi.

Suvni iqtisodiy ne'mat sifatida boshqarish samarali va adolatli foydalanish hamda suv resurslarini saqlash va muhofaza qilishni rag'batlantirish kabi ijtimoiy maqsadlarga erishishning muhim yo'lidir. Suv iqtisodiy va ijtimoiy ne'mat sifatida qadrlidir. Suvni boshqarishdagi ko'plab o'tmishdagi muvaffaqiyatsizliklar suvning to'liq qiymati tan olinmaganligi bilan bog'liq.

Xulosa va takliflar

Suv resurslarini integral boshqarishning amaliy mohiyatini belgilovchi asosiy tamoyillari

-suv resurslarini boshqarish gidrografik chegaralarda amalga oshiriladi

-boshqaruv suv resurslarining barcha turlarini hisobga olishni va ulardan foydalanishni ko'zda tutadi

-suvdan foydalanishning barcha turlari va suv resurslarini boshqarish bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlarning gorizontal ravishda tarmoqlar o'rtasida va suv xo'jaligi ierarxiyasi darajalari o'rtasida vertikal ravishda chambarchas bog'liqligi

-aholining nafaqat boshqaruvda, balki suv xo'jaligi infratuzilmasini moliyalashtirish, saqlash, rejalashtirish va rivojlantirishda ham ishtirok etishi

-suv xo'jaligi organlari faoliyatida tabiat talablarning ustuvorligi

-suvni tejash va samarasiz suv yo'qotishlariga qarshi kurashish

-suv resurslarini boshqarish tizimining axborot ta'minoti, ochiqligi va shaffofligi

-boshqaruvning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. ****Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi****. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Гофуров А.М., Саттаров У. ****Гидрогеология ва гидрохимия асослари****. – Тошкент: ТДТУ, 2018.
3. Камалов Б. ****Орол денгизи ва Оролбўйи экологик муаммолари****. – Тошкент: Фан, 2010.
4. Qurbanov Saparboy Shernafasovich, & Nurmuxamedov Sanjarbek Ilxamovich (2025). [SUVLARINING JOYLASHISH CHUQURLIGI VA SHO'RLANISH DARAJASINI GAT DASTURI ASOSIDA TADQIQ QILISH.](#) INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE, 3 (33), 195-199.
5. Курёзов Курёз Отабаевич, & Нурмухамедов Санжарбек Илхамович (2024). ПРОЧНОСТЬ СЫПУЧИХ ГРУНТОВ ПРИ ПОВЫШЕННЫХ ЗНАЧЕНИЯХ НАПРЯЖЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КИНЕМАТИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ ПРОЧНОСТИ. Строительство и образование, 3 (1), 6-10.
6. Султонов Ибодулла, & Нурмухамедов Санжарбек, Қурбанов Сапарбой. (2024). Ички хўжалик каналлари техник ҳолатини баҳолаш ва сув исрофгарчилигини олдини олиш. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS / 2025 – PART 44 / (Copenhagen "Science Edition" 17 April 2025), 44(1), 445-450.

7. Султонов Ибодулло, Курбанов С. М., & Нурмухамедов С. И., (2025). ГИДРОТЕХНИК ҚУРИЛИШ (БЕТОНЛАШТИРИШ) МЕЪЁРЛАРИ ВА УНГА ҚЎЙИЛГАН ТАЛАБЛАР., 2(2), 37-46.
8. Qurbanov, Saparboy, & Nurmuxamedov, Sanjarbek Ilxamovich, (2025). XORAZM VILOYATI SUG'ORILADIGAN MAYDONLARIDAGI YER OSTI SUVLARINING JOYLASHISH CHUQURLIGI VA SHO'RLANISH DARAJASINI GAT DASTURI ASOSIDA TADQIQ QILISH. BELARUS International scientific-online conference "INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE" Part 33 April 19th COLLETIONS OF SCIENT WORKS, 33 (33), 202-206.
9. И.Р. Султонов, & С.И. Нурмухамедов, (2025). ИЧКИ ХЎЖАЛИК КАНАЛЛАРИНИ БЕТОНЛАШДА КУЗАТИЛАЁТГАН КАМЧИЛИКЛАР ВА УНИНГ ЕЧИМИ. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 125 (4/1), 315-320.

UYLARNING ENERGIYA TEJAMKORLIGINI OSHIRISHNING USULI

Nurimetov Sherzod Baxodirovich

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Qurilish"
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada yakka tartibda maxalliy ashyolardan qurilgan kam qavatli turar- joy binolarini isitishga sarflanayotgan energiyani tejashda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotning natijalari keltirilgan. Mavjud uylar to'suvchi konstruksiyalarini issiqlik o'tkazishga qarshiligini oshiruvchi konstruktiv yechimlar taklif qilinadi. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Аннотация

В статье представлены проблемы энергосбережения при отоплении малоэтажных жилых домов из местных материалов и результаты научных исследований, направленных на их преодоление. В статье также представлены авторские научные предложения и практические рекомендации по данному вопросу.

Annotation

The article presents the problems of energy saving when heating low-rise residential buildings from local materials and the results of scientific research aimed